

MOLGUZAR TOG‘ TIZMASI FLORASINING TAKSONOMIK STRUKTURASI

Azimova D

Sharipova M

Jizzax Davlat Pedagogika universiteti

dilya_7662323@mail.ru

Annotatsiya: *Turkiston tizmasidagi eng boy floralardan biri hisoblangan, Molguzar tog‘ tizmasi florasining taksonomik tarkibiga oid ma‘lumotlar keltirilgan. Etakchi oila va turkumlarning tarkibi mazkur floraning Tog‘li O‘rta Osiyodagi boshqa floralar bilan mavjud aloqalarini hamda ayrim turkumlarning tur hosil bo‘lish markazlari tarkibiga kirishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *takson, flora, polimorf, oila, tur.*

Turkiston tog‘ tizmasida joylashgan, shu jumladan Molguzar tog‘ tizmasi va uning atrofidagi hududlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar o‘ttan asrlarning o‘rtalariga tug‘ri keladi. Molguzar tog‘larining botanik tadqiqotlari bilan Jizzaxda A.Regel, Kapyu va Bonvalo (1876-1885) A.I.Vvedenskiy, P.A.Gomolitskiy, G.Protopopov, B.Zakrjevskiy (1932-1935) E.E.Korotkova va A.P.Vasilkovskaya (1937-1938) kabi olimlar tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiyalar bu hududni xam chetlab o‘tmagan. Keyinchalik M.G.Popov va N.V.Androsov (1926) E.M.Demurina (1937) singari tadqiqotchilarning ilmiy ishlari chop etilgan [1].

Tadqiqot hududi Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasining Ko‘xiston va Nurota (Molguzarning eng g‘arbiy qismi) okruglarining tarkibiga kiradi [4]. Bir asrdan ortiq muddat davomida olib borilgan botanik tadqiqotlar mavjudligiga qaramasdan Molguzar tog‘ tizmasi florasining turlar tarkibi haligacha to‘la aniqlanmagan.

Molguzar tog‘ tizmasining florasini hududida olib borilgan dala tadqiqotlar hamda O‘simlik va hayvonot olami genofondi institutining Markaziy gerbariy (TASH) fondida saqlanayotgan namunalarini tahlil qilish natijasida mazkur floraning taksonomik tarkibi aniqlanildi va ular 84 oila, 465 turkumga mansub bo‘lgan 1255 turiga mansubligi e‘tirof etilmokda. Flora tarkibidagi eng yirik taksonomik birliklarning o‘zaro nisbati 1-jadvalda keltirilgan.

1 jadval.Molguzar tog‘ tizmasi florasidagi eng yirik taksonomik birliklarning o‘zaro nisbati

Bo‘limlar	Tur	Tur %	Turkum	Turkum %	Oila	Oila	%
Nisbati							
Equisetophyta							
Polypodiophyta							
Pinophyta							
Magnoliophyta							

2	
7	
7	
1154	0,17
0,60	
0,60	
98,63	1
6	
2	
449	0,21
1,31	
0,44	
98,04	1
1	
2	
86	1,11
1,11	
2,22	
95,56	1:1:2
1:6:7	
1:1:3,5	
1:5,2:13,4	
Jami:	1170 100 458 100 90 100 1:5,0:13,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tadqiqot olib borilayotgan florada YOpiq urug'li o'simliklar (Magnoliophyta) 86 oila 449 turkum va 1154 turni, ya'ni umumiy floraning 98,63% tashkil etadi. Molguzar tog' tizmasining florasining umumiy nisbati 1:5,0:13,0 ni tashkil etadi. Bunda bitta oilaga 5,0 ta turkum va 13,0 ta tur tug'ri keladi. Bu kursatgich Zomin qo'riqxonasining florasida 1:5,5:12,4 tashkil etadi [9].

Tadqiqot olib borilgan hudud florasining asosiy jihatlari polimorf oilalar va turkumlarning tarkibi orqali namoyon bo'ladi (2-jadval). Polimorf oilalar qatoriga 20 dan ortiq turlarga ega bo'lgan oilalar kiritildi. Bu oilalar 893 tur yoki jami floraning 76,32% jamlangan. Bu ko'rsatkich Zomin qo'riqxonasining florasida 98,57% tashkil etadi [9], Janubi-g'arbiy Tiyon-SHon florasida 81,1% tug'ri kelgan [6]. Polimorf oilalar tarkibida etakchilik qiluvchi Asteraceae, Fabaceae, Roaseae oilalarida 431 tur jamlangan bo'lib, bu umumiy floradagi turlarning 1/3 qismiga tengdir (36,84 %). Keyingi 7 polimorf oilalarda jami 354 tur (30,25%). Qolgan 4 ta oilada esa 108 tur (9,23%) borligi aniqlandi. Polimorf oilalarda o'rtacha bitta oilaga 28 tadan tur tug'ri kelsa, qolgan 70 ta oilaga 293 tur (19,7%) tug'ri keladi.

Tog'li O'rta Osiyo provinsiyasiga boshqa lokal floralardagi polimorf turkumlarning Molguzar tog' tizmasi florasida ham etakchilik qilishi aniqlandi. Polimorf turkumlar qatoriga 10 tadan ortiq turga ega bulgan 13 turkum kiritilib, ular 244 turni (20,86%) o'z ichiga oladi. Mazkur florada *Astragalus L.* 70 tur (5,98%) bilan etakchilik qiladi. Ulardan

60 dan ortig'ining tarqalishi Tog'li O'rta Osiyo provinsiyasi bilan chegaralanadi. Kolgan 30 yaqin tur Kopetdag-Xurosan, Eron-Turon provinsiyalarida ham tarqalgan [3, 11]. Zomin qo'riqxonasining florasida astragalning 62 turi (5,2%) [9], Janubiy-Garbiy Tiyonshon florasida esa 101 turi (4,9 %) [6] uchraydi.

Keyingi etakchi turkulardan biri Allium L., hisoblanadi. Mazkur turkumning O'zbekiston florasida 68 turi o'z ichiga oladi [8]. Molguzar tog' tizmasi florasida 28 turi tarqalganligi aniqlandi. Bu floraning (2,39%) ni tashkil etadi.

Janubiy-G'arbiy Tiyonshonning O'zbekiston qismida 2056 turlarning 54 tasi (2,6%) ushbu turkumga tegishli [6]. Nurota qo'riqxonasi florasida 786 ta turning 18 tasi (2,2%) tashkil etadi [7]. Sirdaryo Qoratog'i uchun R.V.Kamelin [2] 35 tur keltirgan. Bu flora 1666 turdan iboratligini hisobga olsak, Allium turkumi vakillari floraning 2,1% tashkil etadi. Zomin qo'riqxonasining florasida 1192 tur bo'lib, shundan 23 tasi (1,9%) ushbu turga mansub [9].

Molguzar tizmasi florasidagi turlardan Allium isakulii R.M.Fritsch et F.O. Khass., (Xr. Malguzar (ущеле Vorota Tamerlana). Xr. Koytash (mejdu k. Sarгыmsakлы i Tutлы) Allium praemixtum Vved., (Xr. Nuratau (Gurdara). Xr. Koytash (g. Piyazлы). Xr. Malguzar (Pishagarsay). O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan [10].

Qolgan polimorf turkumlar qatoriga Cousinia, Artemisia, Ranunculus, Gagea, Veronica, Poa, Ferula, Oxytropis, Euphorbia, Scutellaria, Vicia kiradi (2 jadval).

2- jadval. Molguzar tog' tizmasi florasining polimorf oila va turkumlari

Oila Turlar soni % hisobida Turkum turlar soni % hisobida

Asteraceae	163	13,93	Astragalus	70	5,98
Fabaceae	138	11,80	Allium	28	2,39
Poaceae	130	11,11	Cousinia	19	1,62
Brassicaceae	70	5,98	Artemisia	18	1,54
Lamiaceae	64	5,47	Ranunculus	17	1,45
Apiaceae	57	4,87	Gagea	14	1,20
Caryophyllaceae	48	4,10	Veronica	13	1,11
Boraginaceae	40	3,42	Poa	13	1,11
Rosaceae	40	3,42	Ferula	11	0,94
Scrophulariaceae	35	2,99	Oxytropis	11	0,94
Ranunculaceae	32	2,74	Euphorbia L.	10	0,86
Alliaceae	28	2,39	Scutellaria L.	10	0,86
Polygonaceae	26	2,22	Vicia L.	10	0,86
Liliaceae	22	1,88			
Jami:	893	76,32	244	20,86	

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Molguzar tog' tizmasi florasida Turkiston tog' tizmasining boy floralar qatoridan joy oladi. Polimorf oila va turkumlarning tahlili uni Tog'li O'rta Osiyodagi bo'zqa lokal, floralar bilan mustaxkam aloqalarini ko'rsatadi. Astragalus, Cousinia, Allium, Gagea, Tulipa, Heaysarum singari bir qator turkumlarning

tarkibi mazkur hudud tur hosil bo‘lish va turlar xilma-xilligining markazlari qatoriga kirishini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. Демурина Е.М. Растительность западной части Туркестанского хребта и его отрогов. Ташкент. Фан. 1975, с.. 9-12, 73-129.
2. Камелин Р.В. Кухиستانский округ Горной Средней Азии. Л.: Наука, 1979. 117 с.
3. Камелин Р.В. Astragalus L. - Астрагал. Определитель растений Средней Азии. Т. 6. - Ташкент: Фан, 1981. - С. 70-278.
4. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. О проекте ботанико-географического районирования Узбекистана. Материалы конференции Биохилма-хилликни сақлаш ва ривожлантириш муаммолари. Гулистан, 2012. С. 6-10.
5. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю. Кадастр редких и исчезающих видов растений Джизакского и Навоийского вилоятов Республики Узбекистан. В сб. Биоразнообразие Узбекистана – мониторинг и использование. Ташкент, 2007. С. 200-207.
6. Тожибаев К.Ш. Флора Юго-Западного Тянь-Шаня.-Ташкент: Фан, 2010.-100 с.
7. Бешко Н.Ю. Флора Нуратинского заповедника: Автореф. дисс. ... канд.биол.наук.-Ташкент,1999.-26 с.
8. “Ўзбекистон флораси” 1-том 1962 й 427-466.
9. Эсанкулов А.С. Флора Зааминского государственного заповедника: Автореф. дисс. канд. биол. наук. Ташкент, 2012. 19 с.
10. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби.-Ташкент: Chinor ENK, 2009.-С.170-178.
11. Podlech D. 2011. Thesaurus Astragalorum. [http://www.svsbot.biologie.uni-muenchen.de /de/personen/ podlech/thesaurus astragalus.pdf](http://www.svsbot.biologie.uni-muenchen.de/de/personen/podlech/thesaurus_astragalus.pdf).